BOG’ QATOR ORALARIDA SABZAVOT EKINLARINI YETISHTIRISH VA ULARNING ZARARKUNANDALAR BILAN ZARARLANISH.

U.E.Do’schanov Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti v.b.dotsent Urganch shaxri. uduschanov@inbox.ru

H.Z.Sobirova Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti. Urganch shaxri. E-mail: sobirovahayotjon644@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bog’ qator oralarida yetishtiriladigan sabzavot ekinlarining asosiy zararkunandalari va ularning hosildorlokka ta’sirini o’rganishga qaratilgan.Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, shiralar, oqqanot, tripslar, o’rgichak kanalar hudduda eng ko’p uchraydigan zarakunandalardir. Zararkunandalar o‘simliklarning bargi, poyasi va ildizini zararlab, fotosintez jarayonini susaytiradi va hosildorlikning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Tadqiqot asosida agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralarini qo‘llash tavsiya etildi. Ushbu natijalar bog‘da sabzavot ekinlarini yetishtirishda yuqori hosil va sifatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: bog’ qator oralari, sabzavot ekinlari, zarakunandalar, hosildorlik, itegratsiyalashgan himoya.

Аннотация: Цель данной статьи - изучить основных вредителей овощных культур, выращиваемых в садовых грядках, и их влияние на урожайность. Результаты исследования показали, что наиболее распространенными вредителями в регионе являются тля, трипсы и паутинные клещи. Вредители повреждают листья, стебли и корни растений, замедляя процесс фотосинтеза и приводя к значительному снижению урожайности. На основе исследования были рекомендованы агротехнические, биологические и химические методы борьбы.

Эти результаты важны для обеспечения высокой урожайности и качества овощных культур при выращивании в садах.

Ключевые слова. садовые грядки, овощные культуры, вредители, урожайность, комплексная защита.

Annotation. This article aims to study the main pests of vegetable crops grown in garden rows and their impact on yield. The results of the study showed that aphids, aphids, thrips, spider mites are the most common pests in the region. Pests damage the leaves, stems and roots of plants, slowing down the photosynthesis process and leading to a significant decrease in yield. Based on the study, it was recommended to use agrotechnical, biological and chemical control measures. These results are important in ensuring high yields and quality in the cultivation of vegetable crops in the garden.

Keywords: garden rows, vegetable crops, pests, yield, integrated protection.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida iqlimning o‘zgarishi va atrof muhitning keskinlashuvi bir qator ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, zararkunanda hasharotlarning turi, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligiga salbiy ta'siri yildan yilga ko‘payib, dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar kimyoviy usulni zararkunandalar sonini cheklash bo‘yicha chora-tadbirlar tizimidagi asosiy o‘rinlardan biri deb belgilashmoqda. Biroq pestitsidlar ta’sirida, agrotsenozlardagi nafaqat zararkunandalar, balki foydali entomofauna ham qirilib ketishi bilan birga ekologik muvozanat buziladi. Shuning uchun ham agrotsenozlardagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda, ilmiy asosda o‘rganish hamda monitoringini olib borish zararkunandalarga qarshi kurashishning innovatsion yechimlarini qo‘llash muhim ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda hasharotlar faunasi xilma-xilligini aniqlash, ularni muhofaza qilish hamda ekotizim barqarorligini ta’minlash borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Xususan, 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida “…biologik xilma-xillikni saqlash va undan

barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash” vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikamizning, jumladan, Xorazm viloyati agrotsenozlaridagi qattiqqanotlilar faunasini sistematik jihatdan o’rganish, bioekologik xususiyatlarini yoritib berish hamda foydali turlarni muhofaza qilish, eng asosiysi - zararkunanda qattiqqanotlilarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi-bog‘ qator oralaridan samarali foydalanish asosida sabzavot ekinlarini yetishtirishning agrotexnik usullarini ilmiy jihatdan asoslash, bu sharoitda uchraydigan asosiy zararkunandalarni aniqlash, ularning ekinlarga zarar berish darajasini baholash hamda zararkunandalarga qarshi ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali kurash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Tajriba ishlari dala sharoitida olib borildi. Tadqiqotlar natijasida bog‘ qator oralarida yetishtiriladigan sabzavot ekinlari uchun agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Sabzavot ekinlarini ekish muddatiga rioya qilish, tuproqni to‘g‘ri ishlash, o‘g‘itlash va sug‘orish tizimini to‘g‘ri tashkil etish ekinlarning yaxshi o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, sabzavot ekinlarida uchraydigan asosiy zararkunandalar - shiralar, o’rgimchak kana,tripslar, kapalak lichinkalari va boshqa hasharotlar ekinlarga sezilarli darajada zarar yetkazishi aniqlangan. Zararkunandalar o’simliklarning bargi, poyasi, ildizi va mevasiga zarar yetkazib, hosildorlikni 20-40%gacha kamayishiga sabab bo’lgan. Zararkunandalarga qarshi kurashishda integratsiyalashgan himoya tizimi eng samarali usul ekanligi isbotlandi. Biologik preparatlar va entomofaglardan foydalanish, zarurat tug‘ilgandagina kimyoviy vositalarni qo‘llash tavsiya etildi. Profilaktik choralar o‘z vaqtida amalga oshirilganda pestitsid sarfi kamayib, ekologik xavfsizlik ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bog’ qator oralarida sabzavot ekinlarini yetishtirishning ilmiy asoslangan agrotexnikasi hamda zararkunandalarga qarshi kompleks kurash tizimi hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Zararkunandalar soni va turkumlarini muntazam kuzatib, prafilaktik choralar qo’llash orqali zararkunandalar erta bosqichlarda aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azimov B., Abdullayev A. Sabzavotchilik asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2018.

2. Ostonaqulov T., Zuev V., Qodirxo‘jayev O. Sabzavotchilik. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.

3. Xolmatov B., Xasanov A. Qishloq xo‘jaligi entomologiyasi. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2017.

4. Zuev V., Ataxanov M. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka yetishtirish texnologiyasi. - Toshkent, 2016.

5. Mirzayev M., Yo‘ldoshev A. O‘simliklarni himoya qilish asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

6. To‘raqulov X., Karimov S. Qishloq xo‘jaligi entomologiyasi va zararkunandalariga qarshi kurash. - Toshkent, 2016.

7. Karimov A., Tursunov B. Zararkunandalar va ularning oldini olish usullari. Toshkent: Qishloq xo‘jaligi nashriyoti, 2020.

8. Qishloq xo‘jaligi ilmiy maqolalari va elektron resurslar: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi veb-sayti: www.agro.uz. FAO (Food and Agriculture Organization) sabzavot yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar, 2021.